

# Fanlar akademiyasi ilmiy tadqiqot muassasalari funksiyalari

## I. ITM asosiy vazifalari va ular hal qiladigan masalalar

O'zR Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ishlab chiqarish faoliyati uning ilmiy-tadqiqot muassasalari (ITM) da amalga oshiriladi.

ITM larning asosiy vazifa va funksiyalari ularning ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ishlab chiqarish va ilmiy-tashkiliy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- rejali ilmiy tadqiqotlarni olib borish va ular bo'yicha tegishli hisobotlarni tayyorlash, shu jumladan, quyidagilar bo'yicha: - davlat fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy-texnik dasturlari doirasida tanlov loyihalari, - xalqaro dasturlar, xorijiy davlatlar ilmiy fondlari, universitetlari va boshqa manfaatdor tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan grantlar asosida bajariladigan xalqaro ilmiy loyihalar; - respublikadagi manfaatdor tashkilotlar buyurtmalari bo'yicha bajariladigan xo'jalik shartnomalari; - ko'rsatma beradigan organlarning maqsadli qarorlari bo'yicha bajariladigan eng muhim ilmiy-texnik dasturlari;
- yuqori malakali ilmiy kadrlar va yosh mutaxassislarni tayyorlash va ulardan oqilona foydalanish;
- tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi mexanizmlarini rivojlantirish;
- olingan ilmiy natijalarni o'z vaqtida nashr qilishni ta'minlash va ITM olimlari tomonidan yaratilgan intellektual mulk ob'ektlariga ularni muhofaza qilish va keyinchalik litsenziyalash hamda tijorat yo'lida foydalanish maqsadida patentlarni rasmiylashtirish;
- joriy qilish va sotishni ta'minlash, shu jumladan, ITM tomonidan yaratilgan ilmiy mahsulotni eksport qilish;
- xalqaro va respublika ilmiy konferensiyalarini o'tkazish va ITM xodimlarining o'z sohasi bo'yicha tashkil etilgan konferensiyalarda ishtirokini ta'minlash, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar natijalarini aks ettiruvchi va ITMlarida yaratilgan innovatsion texnologiya va yangi ilmiy mahsulotlarni namoyish etadigan, tegishli eksponatlarga ega innovatsion ko'rgazma, yarmarkalar ishida qatnashishini ta'minlash;
- moddiy-texnik baza hamda ilmiy tadqiqot jihozlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish, ITM noyob ilmiy ob'ektlari va jihozlarini saqlash va ulardan samarali foydalanish;
- xorijiy ITM, ilmiy markazlari va universitetlari bilan tadqiqot mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy aloqalarni rivojlantirish;
- ITMning asosiy faoliyat yo'nalishi bo'yicha boshqa turdagi ishlarni ham amalga oshirish.

ITM o'zining ilmiy-tashkiliy va ishlab chiqarish faoliyatini tegishli fan sohalarini yo'naltiradigan va mazkur ilmiy yo'nalishdagi ITM ni muvofiqlashtiruvchi O'z FA vitse-prezidenti xizmati bilan kelishilgan holda amalga oshiradi.

ITM rahbari boshqaruvchi vitse-prezident taqdimoti bilan O'zR Fanlar akademiyasi prezidenti tomonidan yirik olimlar – fan doktorlari orasidan amaldagi qonunchilikka muvofiq va belgilangan tartibda shartnoma asosida besh yil muddatga tayinlanadi. ITM direktori o'zi boshqarayotgan ITM uchun shaxsan javobgardir. ITM direktori huquq va majburiyatlari O'zR FA Nizomi va ITMning o'z Nizomiga muvofiq belgilanadi.

ITM direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari (fan doktori yoki nomzodi), ilmiy kotib (fan doktori yoki nomzodi) boshqaruvchi vitse-prezident bilan kelishilgan holda ITM direktori tomonidan tayinlanadi. Ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari va ilmiy kotib huquq va majburiyatlari ITM Nizomiga muvofiq direktor

tomonidan belgilanadi.

Ilmiy-tadqiqot bo'linmasi (bo'lim, laboratoriya, sektor, ilmiy jamoa (guruh)) rahbari odatda direktor tomonidan ITM Ilmiy kengashida tanlovdan o'tgan fan doktor (nomzod)lari orasidan tayinlanadi.

ITM direktori huzurida Ilmiy kengash shakllanib, uning tarkibiga ITM ning yetakchi olimlari, laboratoriya (bo'lim) rahbarlari va ilmiy loyihalarni bajaradigan guruh rahbarlari kiradi. Ilmiy kengash oliy jamoat boshqaruvchi va ekspert maslahat organi bo'lib, O'zR FA Nizomi va ITM direktori tomonidan tasdiqlangan Kengash nizomiga ko'ra faoliyat yuritadi.

Lavozimiga ko'ra ITM direktori ITM Ilmiy kengashi raisi hisoblanadi, u shuningdek, O'zR Fanlar akademiyasi Umumiy yig'ilish va O'zR FA ITM direktorlari kengashi a'zosi hamdir. ITM direktori ITM Ilmiy kengashining doimiy va samarali faoliyati uchun barcha sharoitlarni yaratadi va unig ishi bo'yicha umumiy rahbarlik va nazorat ishini amalga oshiradi. Ilmiy kengash kotibi ITM ilmiy kotibidir.

## II. ITM faoliyatining iqtisodiy asoslari

Fanlar akademiyasi va uning ITM faoliyatining iqtisodiy asosini davlat tomonidan Fanlar akademiyasi tarkibiga kiradigan barcha ITMlariga muddatsiz foydalanish va tasarruf etishga topshirilgan asosiy fondlar, Fanlar akademiyasi tomonidan yaratilgan mulk va intellektual mulk mahsulotlari, shuningdek, mulkchilikning boshqa shakllari tashkil etadi.

Fanlar akademiyasi ruxsatisiz, yoki amaldagi qonunchilikka zid keladigan hollarda Fanlar akademiyasi asosiy fondlari va uning boshqa mulklari begonalashtirilish yoki qayta tashkil etilishi mumkin emas.

O'zR FA ITM faoliyati ilmiy loyihalarni bajarish uchun beriladigan tanlov grantlari ko'rinishida taqdim etiladigan davlat byudjeti mablag'lari va ITMlarining noyob ilmiy ob'ektlarini saqlash va iqtisodning muhim tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan davlat miqyosida ahamiyatli ustuvor tadqiqotlar uchun ajratiladigan maqsadli mablag'lar, shuningdek, belgilangan tartibda jalb etilgan byudjetdan tashqari mablag'lar (ichki va tashqi investitsiyalar, ishlab chiqarish mahsulotlari va intellektual mulkni sotishdan tushadigan daromad, xalqaro ilmiy dasturlar va tanlov loyihalarini bajarish uchun grantlar, ilmiy-texnik hamkorlik doirasidagi beg'araz yordam va boshqalar) asosida amalga oshiriladi. Davlat byudjetidan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish uchun ajratilgan mablag'lar Fanlar akademiyasi tomonidan uning ITM ga yetkaziladi.

Mablag'larni ITM belgilangan tartibda tasdiqlangan harajatlar smetasi doirasida va amaldagi qonunchilikka muvofiq mustaqil ravishda sarflaydi.

ITM, shuningdek O'zR FA xo'jalik hisobidagi muassasalari va birlashmalari o'z faoliyatlarini amaldagi qonunchilik, O'zR FA Nizomi va O'zR FA Hay'ati tomonidan tasdiqlangan o'z Nizomlariga ko'ra amalga oshiradilar.

ITM va O'zR FAning boshqa tashkilotlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan aksionerlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik birlashmalari, kompaniyalar ta'sischilari va ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Ular o'z faoliyatidan va ichki hamda tashqi bozorda ilmiy ishlanmalar, ilmiy-texnik va reklama-tijorat va boshqa xizmatlarni ko'rsatishdan kelib tushadigan daromadlarga egalik qiluvchi va ulardan foydalanuvchi yuridik sub'ektlar sanaladi.

ITM va O'zR FAning boshqa tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga qonunchilikka zid kelmaydigan, o'z nizomlariga muvofiq turli faoliyatni amalga oshirishi mumkin.

Byudjetdan mablag'lashtiriladigan ilmiy tadqiqotlar natijalari to'g'risidagi hisobotlar olimlar va O'zR FA ITMlarning mualliflik huquqlarini muhofaza qilish normalariga rioya qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasiga taqdim etiladi.

O'zR FA ITM ilmiy xodimlari va mutaxassislari amaldagi qonunchilik aksosida va belgilangan tartibda mazkur ITMlarida yaratilgan intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan mualliflik huquqlari egalik qiluvchi sub'ektlar hisoblanadi.

FAning ITM, tashkilotlari va boshqa bo'linmalari amaldagi qonunchilik asosida va belgilangan tartibda mulk va mazkur tashkilotlarda yaratilgan intellektual mulk ob'ektlari (ilmiy tadqiqot ishlari natijalari, "nou-xau", tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, kashfiyotlar, sanoat namunalari, seleksiya, urug'chilik yutuqlari va b.) ga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqiga egadirlar.

### III. ITM Ilmiy kengashi vazifalari va vakolatlari

ITM Ilmiy kengashi quyidagi vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi :

ITM faoliyatiga tegishli Nizom, tegishli nizomlar, ko'rsatmalar va boshqa me'yoriy hujjatlarni ko'rib chiqadi, ma'qullaydi va tasdiqlash uchun direktorga tavsiya etadi;

- ITM tarkibiga kiradigan ilmiy bo'linmalar (laboratoriyalar, bo'limlar, sektorlar va b.)ni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish bo'yicha masalalarni ko'rib chiqadi va takliflarni kiritadi;

ITM faoliyatiga taalluqli istiqbolli va joriy ilmiy va ilmiy tashkiliy masalalarni muhokama qiladi va ular bo'yicha tavsiyalarni qabul qiladi;

ilmiy tadqiqotlarning strategik yo'nalishlari, ilmiy tadqiqot muammolarini muhokama qiladi va belgilaydi va ITM ixtisosligi bo'yicha tegishli fan tarmoqlarining ustuvor va istiqbolli yo'nalishlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

ilmiy loyihalar bo'yicha istiqbolli va har yillik rejalarni ko'rib chiqadi va tasdiqlash uchun ITM direktoriga tavsiya qiladi;

- ITM va uning ilmiy bo'linmalarining ilmiy tashkiliy va moliyaviy xo'jalik faoliyati haqidagi hisobot davri uchun hisobotlarini tinglaydi va tasdiqlash uchun direktorga tavsiya qiladi, shuningdek kelgusi moliyaviy yil uchun ITM byudjetini shakllantirish manbalari bo'yicha takliflarni kiritadi;

- ilmiy tadqiqot ishlarini muhokama qiladi, ilmiy ekspertizadan o'tkazadi va saralaydi hamda ularni fundamental, amaliy va innovatsion ishlanmalarning muhim davlat ilmiy va ilmiy texnik dasturlari bo'yicha tanlovlarda ishtirok etish uchun tavsiya etadi;

- fundamental, amaliy, innovatsion loyihalar va xalqaro ilmiy loyihalarning bajarilishi va natijalari monitoringini o'tkazadi, ular bo'yicha hisobotlarni tasdiqlash taklifini kiritadi va yoki ular bo'yicha boshqa tegishli qarorlarni qabul qiladi;

- O'zR Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklik) va O'zR Fanlar akademiyasining xalqaro a'ziligiga, xorijiy davlatlar fanlar akademiyalari a'zolari tarkibi, xalqaro ilmiy hamjamiyatlar, assotsiatsiyalar va uyushmalar a'ziligiga ilg'or olimlar orasidan nomzodlarni taqdim qiladi; shuningdek, professor va katta ilmiy xodim ilmiy unvonlarini berish uchun nomzodlarni taqdim etadi, O'zR Fanlar akademiyasi akademikligiga saylash uchun nomzodlarni tavsiya etadi va fan, texnika, san'at va O'zR me'morchiligi sohalarida davlat mukofotlari uchun eng ahamiyatli ishlarni taqdim etadi.

- tegishli ixtisosliklar ro'yxati va fan doktori ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsion mavzularini tasdiqlaydi, katta ilmiy xodim-izlanuvchilikka o'qishga qabul qilish va ularni har yili attestatsiyadan o'tkazishni amalga oshiradi;

- vazirlik, davlat qo'mitalari, idoralar, fondlar, korporatsiyalar, konsernlar, assotsiatsiyalar, sohaviy ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, akademik litseylar, ilmiy va ilmiy-texnik jamoalar, ijodiy uyushmalar, firmalar, birlashmalar, respublika tashkilotlari va korxonalar bilan o'zaro manfaatli

hamkorlikni rivojlantirish masalalarini ko'rib chiqadi va tavsiyalar beradi;

- ITM xalqaro ilmiy aloqalarini rivojlantirish, xalqaro ilmiy grantlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni bajarish haqida takliflarni ko'rib chiqadi va asoslab beradi va O'zR Fanlar akademiyasi hamda manfaatdor tashkilotlarga tegishli tavsiya va taqdimotlar beradi;
- ITMda yaratilgan intellektual mulk, ilmiy tadqiqot natijalari muhofazasi hamda ulardan ITM faoliyatida foydalanish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;
- ITM ilmiy ixtisosliklari bo'yicha dissertatsiya himoyalari bo'yicha ixtisoslashgan kengash a'zolari tarkibini ko'rib chiqadi va O'zR OAKga taqdim etish uchun tavsiya etadi;
- O'zR OAK ilmiy-texnik ekspert ilmiy kengashlari ishida ishtirok etish uchun ITM vakillarini tavsiya etadi;
- ITMda ishlab chiqiladigan muammolar bo'yicha ilmiy, ilmiy-texnik konferensiyalar va boshqa ilmiy forumlarni o'tkazish bo'yicha har yilgi rejalariga tegishli tadbirlarni kiritish takliflarini muhokama va tavsiya qiladi;
  - olimlar ilmiy ishlari (monografiyalari, darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy ishlarning mavzuiy to'plamlari, mashhur olimlar bibliografiyalari, ITM o'tkazadigan ilmiy konferensiya, simpozium, s'ezd va boshqa ilmiy forumlari materiallari va tezislari to'plami)ni nashr etish takliflarini ko'rib chiqadi va nashrga tavsiya etadi;
  - ITM Yosh olimlar kengashi ishini metodik jihatdan boshqaradi;
    - respublika hududida ITM ixtisoslashgan fan tarmog'ining rivojlanish tarixini o'rganish bo'yicha takliflar, shuningdek, jamoatchilikni olimlar yutuqlaridan xabardor qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;
  - zarurat tug'ilganda ITM faoliyatiga taalluqli boshqa masalalarni ham hal qiladi, hamda ITM direktori va O'zR Fanlar akademiyasi Hay'ati ko'rib chiqishi uchun tegishli takliflarni kiritadi;
- muhokama qilingan masalalar yuzasidan tegishli qarorlarni chiqaradi.

Zarurat tug'ilganda ITM Ilmiy kengashi qoshida komissiya va ekspert guruhlar tashkil etiladi, shuningdek, ularga boshqa tashkilotlar, oliy o'quv yurtlaridan olim va mutaxassislar taklif etilishi mumkin.